

JAHON VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLOGIK VA PAREMIOLOGIK
BIRLIKLARNING O'RGANILISHI

Sobirova Sevara Baxtiyorovna
Ismailova Anaxon Kamoladdinovna

Annotatsiya. *Bu maqolada ijtimoiy-siyosiy, badiiy asarlar va boshqa ilmiy adabiyotlardan to'plangan lisoniy materiallar ham o'z aksini topgan bo'lib, Xorazm shevalaridagi frazeologizmlar, ularning leksik-semantik va grammatick xususiyatlarini o'rganish maqsad qilib olindi.*

Kalit so'zlar: *adabiy til, sheva, lisoniy birlik, badiiy asar, frazeologizm, grammatick xususiyatlar*

Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil hamda mezonzlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rinn tutishimi yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi²⁵. Har bir millatning ma'naviyatini, uning tarixi, o'ziga xos urf-odatlari, an'analari va qadriyatlari xususida tasavvur hamda tushunchaga ega bo'lmasdan turib, bu haqida gapirish hech qanday naf keltirmaydi. Shuning uchun ma'naviyat haqida gap ketganda har bir xalq, har bir fuqaro o'zining ma'naviy merosi haqidagi tushuncha va tasavvurga ega bo'lib, uning shakllanishi hamda taraqqiyoti xususida qayg'urishi lozim. Bu xususida prof. N.Mahmudovning quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tish diqqatga molikdir. Chunonchi, u shunday yozadi: "Insonning ma'naviy kamolatga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma'rifiy rivojida ona tilining o'rni favqulodda muhimdir. Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko'zgusidir"²⁶. Bu xususida fikr bildirgan hurmatli yurtboshimiz I.A.Karimovning quyidagi so'zlarini takidlash o'rinlidir: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi... Ona tili - bu millatning ruhidir. O'z ona tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar"²⁷. Ko'rinish turibdiki, millatning borligi va birligining bosh belgisi bu tildir.

So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligining deyarli barcha sohalarida muvaffaqiyathi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi va ularning natijasi o'laroq, tilshunosligimiz aytarli darajada taraqqiy etdi. O'zbek tilshunosligining tadqiq doirasi kengaydi.

Ma'lumki, har bir til so'z boyligining rivojlanishida asosiy ikkita xususiyat mavjud: birinchisi - bu chet tildan so'z o'zlashtirish bo'lsa, ikkinchisi esa, har bir tilning ichki imkoniyatidan kelib chiqib, aniqrog'i, lahja va shevalar asosida rivojlanishidir. Biz mazkur ishimizda yuqorida qayd etilgan xususiyatlarning ikkinchisiga to'xtolib o'tishni ma'qul ko'rdik. Chunki o'zbek tilshunosligiga oid ko'pgina nazariy va amaliy masalalarni hal qilish bevosita lahja hamda shevalarni o'rganish bilan bog'liq. Qolaversa, adabiy til bilan shevalar, lahjalar

²⁵ Ислом Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият. 2009, 29-бет.

²⁶ Низомиддин Маҳмудов. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2007, 3-бет.

²⁷ Юқоридаги асар, 3-бет.

o'rtaidagi munosabatni belgilash masalasi shevalarni guruhlarga ajratib, tarixiy-lingvistik aspektida o'rganishni talab qiladi. Bu xususida fikr yuritgan prof. X.Doniyorov adabiy tilni rivojlanishida asosiy omil lahja va shevalar ekanligini ta'kidlab, quyidagicha yozadi: "Milliy adabiy tilni rivojlantiruvchi ichki imkoniyatlarga birinchi navbatda uning ichki rezervlari bo'lgan xalq tili - xalq shevalari va dialektlari kiradi"²⁸. O'zbek tilshunosligida bu muhim soha tilshunos olimlarimizning tarixiy-dialektologik tadqiqotlari bilan ancha rivojlandi. Bular A.K.Borovkov²⁹, F. A. Abdullev³⁰, A.Ishaev³¹, E.D.Polivanov³², Sh.Shoabdurahmonov³³, O.Madrahimov³⁴ va boshqa tilshunoslarmiz ishlarida o'z aksini topgan. Xullas, xalq shevalari va dialektlarni ichki zahira sifatida adabiy tilimiz bilan bog'lab o'rganish sohasida ham keyingi vaqtarda jiddiy ishlar qilindi. Chunki bunday ishlarning tilshunosligimiz uchun nazariy va amaliy ahamiyati benihoya muhimdir. Qolaversa, u yoki bu lahjaning, u yoki bu shevaning adabiy tilimizga qo'shgan hissasi va unga beradigan imkoniyatlarni o'rganmasdan turib, shu shevalarning yoki, xususan, adabiy tilimizning istiqbolini belgilash, uning kelajagini ta'minlash sohasida biror jiddiy ish qilish qiyin. Shuning uchun ham bu ishlarni hali turli xil aspektlarda hamda yangi-yangi shevalar va lahjalar bilan o'rganishni davom ettirmoq lozim. Biz yuqorida o'zbek xalq shevalari va lahjalari fonetikasi, leksikasiga doir olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga va galdeg'i vazifalarga qisqacha to'xtalib o'tdik.

O'zbek tili dialektologiyasi oldida turgan dolzarb muammolardan biri O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan o'zbek lahja va shevalarini o'rganishdan iboratdir. Chunki ushbu sheva va lahjalar o'zbek adabiy tilining tarkibiy qismi bo'lib, ular o'ziga xos lisoniy va nolisoniy xususiyatlarga egadir. Bizning ushbu ishimiz o'zbek dialektologiyasining tarkibiy qismi bo'lgan frazeologiyasi sohasiga, aniqrog'i, Xorazm shevalaridagi frazeologizmlarning o'rganilishiga bag'ishlanadi. Chunki Xorazm shevalaridagi frazeologizmlar shu davrga qadar nafaqat monografik planda o'rganilgan emas, balki bular yuzasidan jiddiy ilmiy maqolalar ham e'lon qilingani yo'q. Faqatgina bundan R.Xudoyberganov va H.Abdurahmonovalar³⁵ ning jajji tadqiqotlari mustasnodir. Biz Xorazm shevalaridagi frazeologizmlarning o'rganilishi yuzasidan qilingan ishlarga to'xtalishdan oldin, o'zbek tilshunosligining frazeologiya sohasini o'rganilishi yuzasidan to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Darhaqiqat, o'zbek tilshunosligining frazeologiya sohasini o'rganilishiga nazar tashlasak, uchta-to'rtta doktorlik, o'nlab nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan, ko'p sonli ilmiy maqolalar nashr etilgan, shuningdek, bir nechta o'zbek tilining frazeologik lug'atlari tuzilgan. Endi shular xususida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

²⁸ X. Дониёров. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан.. 1979, 5-бет.

²⁹ Боровков А. К. Вопросы классификации узбекских говоров//Известия, 1953, №5.

³⁰ Абдуллаев Ф. А. Кипчакский говор узбекского языка. АИД. – Тошкент, 1957; Ўша муаллиф. Хоразм шевалари. І луғат. – Тошкент, 1961.

³¹ Ишаев А. Фонетические особенности мангытского говора узбекского языка. АИД. – Тошкент, 1962.

³² Поливанов Е. Д. Узбекская диалектология и узбекский либературный язык. – Тошкент, 1933.

³³ Шоабдурахмонов Ш Узбекский либературный язык и узбекские народные говоры, АИД. – Тошкент. 1963.

³⁴ Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. – Тошкент. 1973.

³⁵ Р. Худойберганов, X. Абдураҳмонова. Хоразм шеваларидаги баязи фразеологизмларнинг семантик хусусиятлари (биринчи мақола)// Тил гулшани (тўплам). – Урганч, 2008, 73-76-бетлар.; Ўша муаллифлар. Хоразм шеваларидаги бази фразеологизмларнинг семантик хусусиятлари (2-мақола). Филологик тадқиқотлар (тўплам). – Тошкент, 2009, 35-37-бетлар.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Каримов Ислом. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Тошкент: Маънавият. 2009
2. Абдуллаев Ф. А. Кипчакский говор узбекского языка. АИД. - Тошкент, 1957.
3. Абдуллаев Ф. А. Хоразм шевалари. І лугат. - Тошкент, 1961.
4. Арнолд И. В. Лексикология современного английского языка. - М. , 1969.
5. Бегматов Э. А. Ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. - Тошкент: Фан, 1985.
6. Бердиёров Ҳ. , Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясига доир библиографик кўрсаткич. - Самарқанд, 1977.
7. Бердиёров Ҳ., Расулов Р., Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясидан материаллар. - Самарқанд, 1976, 1976, 1983.